

**ALEKSANDR ARKADYEVICH FAYNBERG SHE'RIYATIDA ILHOM V
IJOD ERKINLIGI**

*Ilmiy rahbar: Saydamatov Ikromjon Nazirovich
Shukurova Sevinch Bahodir qizi
O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti
Ingliz filologiyasi va tillarni o'qitish fakulteti*

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada o'zbek va rus xalqining iste'dodli ijodkori Aleksandr Faynberg she'riyati haqida ma'lumotlar berib boriladi. Shuningdek, uning Abdulla Oripovga atab yozilgan Zomin-2006 she'ri badiiy tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Aleksandr Faynberg, Abdulla Oripov, falsafiy ruh, adabiyot, she'riy to'plam, tarjima, she'riy san'atlar.*

ABSTRACT: *This article provides information about the poetry of Aleksandr Faynberg, a talented creator of Uzbek and Russian peoples. Additionally, his poem Zomin-2006, dedicated to Abdulla Oripov, is analyzed artistically.*

Keywords: *Aleksandr Faynberg, Abdulla Oripov, falsafiy ruh, adabiyot, she'riy to'plam, tarjima, she'riy san'atlar.*

KIRISH

Aleksandr Faynbergning "Zomin – 2006" she'ri o'zbek adabiyotining yirik namoyandası Abdulla Oripovga atab yozilgan. Ushbu she'rda ijod va hasad, buyuk shaxsiyat va mayda ig'velar to'qnashuvi yuksak poetik mahorat bilan aks ettirilgan. Faynberg, Oripovga bo'lgan hurmatini ifodalash bilan birga, ijod erkinligi va shoir taqdiri mavzusiga ham chuqur yondashadi. She'r metaforalar, ramzlar va lirik-falsafiy kechinmalarga boy bo'lib, unda shamol, yulduz va balandlik obrazlari asosiy badiiy vositalar sifatida gavdalananadi.

"Aleksandr Faynbergning ijodiga kelsak, barcha baland so'zlar haqiqatning yuzdan bir qismini ham aks ettirmaydi, chunki u aslida noyob shoir va tarjimon edi. Jahon darajasidagi yozuvchi, ... rus tilida so'zlashadigan yozuvchilardan hech biri bizning quyoshli diyorimizga samimiyoq qo'shiq kuylashi mumkin emas."

Abdulla Oripov

ASOSIY QISM

Faynbergning ushbu she'ri ijodkor va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatli munosabatni yoritadi. Shoirni yuqoriga ko'targan narsa uning iste'dodi, ilhomni bo'lsa, pastga tortayotgan narsa – hasad va adovatdir. Bu asarda ijodkorning erkinligi shamol va osmonga intilgan yulduz timsollarida berilgan.

She'rning ilk satrlaridayoq olamning muqarrar qonuniyati haqida fikr yuritiladi: "Bir yaxshiga bir yomon degan hayotni." Bu satr ijodiy shaxsiyatlarning har doim qarshiliklarga duch kelishini anglatadi. Oripov misolida barcha buyuk shoirlarning taqdiri aks ettirilgan: ularning iste'dodi yuksak bo'lsa-da, ularning yo'lida pastkashlik doimo uchraydi.

Badiiy vositalar va ramziy ma'nolar

She'rda tabiat obrazlari keng qo'llanilgan bo'lib, ular shoir qismatini ifodalovchi ramziy ma'noga ega. Masalan, shamol – erkinlik, kuch va ijodiy ilhom ramzi bo'lsa, osmon va yulduzlar – yuksaklik va mangu haqiqat timsolidir.

Shamol va shoir:

"Bizning ko'ksimizga hur shamol tegib,

Baland osmonlarda uchgaymiz mammun."

Bu satrda shamol – ijodkorni ozodlik sari yetaklovchi kuch. Shamol shoirdan qo'rqlaydi, unga qarshilik qilmaydi, aksincha, uni yuksaklikka ko'taradi. Bu erkin ruh, ijodiy tafakkur va haqiqatga intilishni ifodalaydi.

Yulduzlar va kuy:

"Zomin. Yoz. Yulduzlar chalur ajib soz,

Ohang may kayfidek aylar bizni mast."

Bu yerda yulduzlar – ijodiy nur manbai. Ular shoirning yuragini yorituvchi, ilhom baxsh etuvchi timsollardir. She'rda musiqa va yulduz obrazlari uyg'unlashib, ilhom va haqiqatning qo'shig'ini kuylaydi.

Hasad va ig'vo:

"Bizlar ucharkanmiz shamolda ozod,

Ular hasad qilsin, mayliga, zimdan."

Shoir erkin, ijodkor yuksakda, hasadgo'ylar esa faqat pastdan qarash bilan kifoyalanadi. Bu satr ijodkorning ma'naviy yuksakligini ko'rsatib, pastkashlarning arzimasligini anglatadi.

She'rdagi falsafiy ruh va lirik ohang

Faynberg she'rida lirik-falsafiy ruh ustunlik qiladi. Shoир ijodiy taqdir haqida mushohada yuritadi va buni realistik tasvirlar orqali ochib beradi. Falsafiy jihatdan she'rda inson hayoti, ijod va abadiylik haqida chuqur fikrlar ilgari suriladi.

Bu she'r shunchaki shoir va adovat o'rtasidagi ziddiyatni emas, balki insoniyatning umumiy muammolaridan birini – iste'dod va unga bo'lgan hasadni ham yoritadi. Faynberg ijodiy yuksaklik va pastkashlik o'rtasidagi kurashni tasvirlash orqali har qanday san'atkor taqdirini o'ziga xos poetik til bilan ochib bergen.

XULOSA

Aleksandr Faynbergning "Zomin – 2006" she'ri Abdulla Oripov shaxsida har qanday buyuk shoir taqdirini aks ettirgan. She'rning asosiy g'oyasi – ijod va erkinlik yuksaklik sari intiladi, hasad va pastkashlik esa doimo unga to'siq bo'lishga urinadi.

Biroq, shamol va yulduzlar timsolida shoir haqiqat va adolat tomon intiladi. She'r o'zining ramziy ma'nosi, badiiy vositalarining betakrorligi bilan nafaqat Abdulla Oripovga, balki har qanday buyuk ijodkor ruhi va taqdiriga atab bitilgan poetik yodgorlikdir. Bu asar o'quvchini nafaqat shoir qismati haqida o'ylashga, balki ijod va erkinlik haqidagi abadiy haqiqatlarni his qilishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumaniyazova .L.S. Aleksandr Faynberg she'rlarining lingvistik tahlili. Multidisciplinary Scientific Journal, Volume 1, Issue 22 (2023).
2. A. Faynberg. Qoralamaga qasida. – Toshkent: “Adabiyot” (2021).
3. O‘zbek she’riyatida falsafiy ramzlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, (2018)
4. Rashidova A.U. Creative Property of Alexander Feinberg. EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE, (2024).
5. G’aniyeva.M. Aleksandr Faynberg she’rlari tarjimalarida shakl va mazmun mutanosibligi. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, Volume54 – Issue-1 (2024). <http://www.newjournal.org>